


Nemis kimyogarlari CO₂ yordamida oksidlash usulini ishlab chiqdi

// 17.06.2026

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/nemis-kimyogarlari-co-yordamida-oksidlash-usulini-ishlab-chi>



Germaniyaning Bayroyt universiteti olimlari CO₂ (karbonat angidrid) gazidan kislorod manbai sifatida foydalanish texnologiyasini taklif qildi. Tadqiqot natijalari *Science* jurnalida e'lon qilindi.

Ishlab chiqilgan usul temir asosidagi geterogen fotokatalizator yordamida amalga oshiriladi. **Yorug'lik ta'sirida fotokatalizator CO₂ni faollashtirib, alkenlarni oksidlovchi parchalash jarayonini ta'minlaydi. Alkenlar plastmassa, farmatsevtika mahsulotlari hamda turli qoplamalar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladigan muhim birikmalar hisoblanadi.**

Reaksiya xona harorati va atmosfera bosimi sharoitida, siqilgan kisloroddan foydalanmasdan kechadi. Bu esa jarayonda issiqlikning nazoratsiz ortib ketishi va portlash xavfini bartaraf etadi.

Tadqiqot Germaniya, Italiya, Shvetsiya, Polsha va Xitoyning ilmiy markazlari hamkorligida amalga oshirildi.